

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**MAMADJANOVA SURAYYOXON AZIZXON QIZI**

**“PORLOQ” SELEKSION NAVLI PAXTA TOLALARINING STRUKTURAVIY  
XOSSALARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TO‘QIMACHILIK  
MATERIALLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical science**

**Mamadjanova Surayyoxon Azizxon qizi**

“Porloq” seleksion navli paxta tolalarining strukturaviy xossalarini hisobga olgan holda to‘qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish..... 3

**Мамаджанова Сурайёхон Азизхон қизи**

Совершенствование технологии отделки текстильных материалов с учётом структурных свойств хлопкового волокна селекционных сортов “Порлок”.... 23

**Mamadjanova Surayyokhon Azizkhon qizi**

Improving the technology of finishing textile materials taking into account the structural properties of cotton fiber of the selected varieties of “Porlock”..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**MAMADJANOVA SURAYYOXON AZIZXON QIZI**

**“PORLOQ” SELEKSION NAVLI PAXTA TOLALARINING STRUKTURAVIY  
XOSSALARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TO‘QIMACHILIK  
MATERIALLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4 PhD/T3171 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ( [www.ttyesi.uz](http://www.ttyesi.uz) ) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ( [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) ) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xudayberdiyeva Dilfuza Baxramovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xanxadjayeva Nilufar Raximovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Odinsova Olga Ivanovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "4" noyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon-5, Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (205-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "21" oktabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil "21" oktabr 2024 yil "21" oktabr 2024 yil "21" oktabr hayonnomasi).



**X.H. Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z. Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh. Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda tabiiy tolalardan to‘qimachilik materiallarini xarid qilish yiliga 30,3 million tonnani tashkil etadi, bu tolali materiallarning jahon ishlab chiqarishini 25 foizini tashkil qiladi. Tolali xomashyolar orasida paxta xomashyosi alohida o‘rin tutadi. Undan yiliga 25,41 million tonna hosil olinadi. Tabiiy tolalar noyob fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular hali dunyoda texnik jarayonlarda to‘liq amalga oshirilmagan. Umuman olganda, tabiiy xususiyatlar to‘qimachilikdan foydalanganda qulaylikni oshirish, genetik modifikatsiyalar yordamida paxta hosildorligini va uning turli zararkunandalarga chidamliligini yaxshilash, to‘qimachilik materiallari assortimentlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda paxta asosidagi to‘qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyalari va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining ilmiy texnikaviy yechimlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda tolalarining strukturaviy xossalarini samaradorligini oshirish, ular asosidagi to‘qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish va ularni to‘qimachilik sanoatiga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, xar bir to‘qimachilik materiallarini pardoqlashga tayyorlashga individual yondashish bo‘yicha alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini keng qamrovda tashkil etilishi natijasida yuqori sifatli yigirilgan ip va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun to‘qimachilik korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish bo‘yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini 1,4 barobarga oshirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta tolalarining strukturaviy xossalarini hisobga olgan holda to‘qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish va ularni to‘qimachilik sanoatiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 dekabrda PQ-391 son “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish va paxta hosildorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil 26 yanvardagi PQ-23 son “Paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya-resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Paxtaning yangi, seleksion navlarini yaratish borasida so'ngi yillarda mamlakatimiz (I.Abduraxmonov, Sh.Egamberdiyev, Z.Bo'riyev) va xorij olimlari (D.P.Delmer, Y.Amor, Yanjun Chjan, Addissu Ayele Erik Hequet, Farzad Hosseinali, J.Aleks Tomasson) ham ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Genomika va bioinformatika markazi olimlari gen nokaut texnologiyasidan foydalanib, hosildorligi, ertapisharligi, qurg'oqchilikka chidamliligi va tola sifati yuqori bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega navlarni yaratdilar.

Mahalliy va xorij olimlaridan G.E. Krichevskiy, M.Z. Abdukarimova, I.A.Nabiyeva, A.S.Rafikov, F.Talebura, A.V. Cheshkova, I.I.Klochkova, E.S.Abdel-Halima, Jozef J.Dannacher, Shin-Xi Li, E.K.Karamkas va boshqalar olib borgan tadqiqotlari to'qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyalarini ishlab chiqarishning yangi avlodi uchun asos bo'ladi. B.I.Izmailov, K.V.Kiselev, G.A.Chinta, Fang Long, Y.Dong, V.Dehabadi, N.Nirolaidis, I.I.Klochkova va boshqalar rang-tuslari, uning bir xilligi hamda fizik va kimyoviy ta'sirlarga chidamliligi bo'yicha bo'yovchi moddalarning sifatini kafolatlaydigan turli xil usullar va reagentlar yordamida bo'yash jarayonini yaxshilashga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, davriy va apriori adabiyotlarda to'qimachilik materiallarini ularning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda tugatish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti ILM-№ 202107012 innovatsion loyihasi doirasida "Paxta va ipak iplaridan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish ("Porloq" seleksion paxta tolasi asosida "Chust" milliy brendini yaratish) loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "Porloq" seleksion navli paxta tolalarining strukturaviy xossalari hisobga olgan holda to'qimachilik materiallarini pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish va ularni to'qimachilik sanoatiga joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"Porloq-1", "Porloq-2", "Porloq-4" yangi seleksion navlarining tarkibiy xususiyatlarini o'rganish va rayonlashgan nav bilan solishtirish;

sifat ko'rsatkichlarini har tomonlama baholash yo'li bilan yangi paxta navlaridan olinadigan ipning fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish;

"Porloq" seleksion navlari asosidagi to'qimachilik materiallarini ularning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda pardoqlashga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish;

"Porloq" seleksion navlari asosidagi kalava ip va gazlamalarning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda bo'yash jarayonini intensivlash imkoniyatlarini o'rganish;

paxta tolasining yangi navlari asosida olingan kalava ipning strukturaviy va sorbsion xususiyatlarining fiksatsiyalangan faol bo'yovchi modda miqdoriga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

taklif qilingan texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish.

**Tadqiqotning obyekti** – paxta tolasining seleksion navlari “Porloq-1” (P-1), “Porloq-2” (P-2), “Porloq-4” (P-4), “S-6524” va ulardan olingan to‘qimachilik materiallari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** paxta tolasining genetik modifikatsiyalangan seleksion navlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash va ularning xossalarini hisobga olgan holda individual pardoqlash texnologiyalarini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida spektrokolorimetrik, IQ-Furye spektroskopik usullar, skanerlash elektron mikroskopiya va rentgen nurlanishini tahlil qilish, shuningdek, fizik-mexanik, fizik-kimyoviy, matematik tahlil usullari va strukturaviy sorbsion usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

genetik modifikatsiyalangan paxta tolalarining fizik-mexanik, geometrik va strukturaviy-hajm xossalarini kompleks baholash asosida kimyoviy pardoqlashning texnologik rejimini tanlashda har bir seleksion navga individual yondashish, maksimal diffuzion jarayonlarini ta’minlash zarurligi va rang berish sifat darajasi analitik va spektroskopik tadqiq usullar asosida aniqlangan;

sellyulozaning vegetatsiya jarayonida shakllangan va ma’lum darajadagi kristallik, strukturaviy-hajm xossalariga ega bo’lgan makro va mikrostrukturalari pardoqlash jarayonlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar ekanligi skanerlovchi elektron mikroskopiya, IK-spektroskopik va rentgenografik-strukturaviy tahlil usullari asosida aniqlangan;

paxta tolasining yangi navlari asosida tayyorlangan to‘qimachilik materiallarini strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda bo‘yash va gul bosishga tayyorlash vannalarining texnologik rejimlari va paxta tolasini bentonitlar bilan bo‘yash jarayonini intensivlash, faol bo‘yovchi moddadan foydalanish va bo‘yash sifatini oshirishni ta’minlash usullari ishlab chiqilgan;

hisoblash va eksperimental tadqiqotlar usullari bilan fiksatsiyalangan bo‘yovchi modda miqdori turli xil seleksion nav tolali xom ashyoning mikro va makro tuzilishlariga bog‘liqligi skanerlovchi elektron mikroskopiya tahlillari va matematik hisoblash usullaridan foydalangan holda aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“S-6524” navli rayonlashtirilgan tolali va P-1, P-2 va P-4 ingichka tolali paxta tolasining yangi navlarining qiyosiy tahlili o‘tkazildi. “Porloq” seleksiya navlari va “S-6524” navlarining mikroneyr ko‘rsatkichlari turlicha ekanligi, yangi navlar yuqori turga kirishi aniqlangan.

baholash orqali ulardan turli assortimentdagi to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqarish uchun foydalanish imkoniyati asoslangan;

“Porloq” paxta tolasining tanlangan navlari asosida to‘qimachilik materiallarining strukturaviy va sorbsion xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyoviy pardoqlashga tayyorlash va bo‘yash jarayonlarining texnologik parametrlari ishlab chiqilgan;

Respublika korxonalarining mavjud liniyalarida pardoqlash jarayonlarini intensivlagan holda RNKi P-1, P-2, P-4 paxta seleksion nav tolalarini kimyoviy pardoqlashga tayyorlash va bo‘yash jarayonlarining texnologik parametrlari ishlab chiqilib, korxonaga joriy qilish uchun tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** HVI (HVI 1000, USTER, Shveytsariya) Standart metodologiyaga muvofiq, tolalarning kompleks ko'rsatkichlarini baholash orqali o'rganilayotgan ob'ektlarning tiplari aniqlandi. Olingan natijalarning ishonchliligi analitik, fizik-kimyoviy usullar - IQ-spektroskopiya, skanerli elektron mikroskopiya, rentgen nurlari difraksion tahlil usullaridan foydalangan holda eksperimental tadqiqotlar olib borish va tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta tolasining P-1, P-2, P-4 yangi seleksion navlarining strukturaviy, sorbsion va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, ularni to'qimachilik materiallari ishlab chiqarishda qo'llash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta asosidagi kalava iplarni bo'yashga tayyorlash va bo'yashning texnologik rejimlarini ishlab chiqish, kimyoviy pardoziqlashga tayyorlash va bo'yash jarayonlarining texnologik parametrlarini aniqlash, shuningdek, yangi paxta tolalari asosidagi to'qimachilik materiallarini bo'yash jarayonini intensivlashtirish va bo'yash sifatini yaxshilash bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Porloq" seleksion navlari paxta tolasining strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'qimachilik materiallarini pardoziqlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

"Porloq-2" va "Porloq-4" seleksion navli paxta kalava iplarini bo'yashga tayyorlashning texnologik rejimi "OSBORN TEXTILE" MCHJ korxonasiida amaliyotga joriy etildi ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 30-apreldagi 03/25-889-son ma'lumotnomasi). Natijada paxta asosidagi kalava ipining strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori oqlik, kapillyarlik va yaxshilangan fizik-mexanik xossalari ta'minlandi. Zichroq tuzilishga ega bo'lgan P-2 seleksiya navi asosidagi kalava ipni bo'yashga tayyorlash jarayoni ishqoriy moddaning nisbatan yuqori konsentratsiyasini (10% gacha), lekin vodorod peroksidning nisbatan past konsentratsiyasini (17% gacha) talab qiladi. Yuqori hajmli xususiyatlarga ega bo'lgan P-4 seleksiya navi uchun esa ishqoriy moddaning sarfini (20% ga) kamayishiga erishilgan.

"Porloq" seleksion navli paxta tolasi asosidagi kalava iplarni bo'yashning texnologik rejimi "OSBORN TEXTILE" MCHJ korxonasiida joriy etildi ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 30-apreldagi 03/25-889-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'yash jarayonini intensivlash va faol bo'yovchi moddaning bentonit bilan qo'shimcha fiksatsiyasi hisobiga bo'yovchi modda sarfining va yuvish sonining qisqarishiga erishildi, bu pardoziqlash korxonalarida oqova suv ifloslanishining kamayishiga olib kelgan. Kalava ipni bo'yash jarayonini intensivlash uchun bentonitni qo'llanilishi bo'yovchi moddadan foydalanish darajasini P-2 seleksiya navi uchun - 21,1% gacha, P-4 uchun - 23,2% gacha va S-6524 uchun - 15,7% gacha oshirishga erishilgan;

"Porloq-4" paxta tolasi asosidagi "Satin" paxta matosini bo'yashga va gul bosishga tayyorlashning texnologik rejimi "Urganch Baxmal" MCHJ, "Marva Impex" MCHJ korxonalarida joriy etildi. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 30-apreldagi 03/25-889-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan rejimni qo'llash natijasida matoning fizik-mexanik xususiyatlari saqlanib qoladi va uning ekspluatatsion



xususiyatlari yaxshilanadi. Shimdirish vannasiga kuchliroq ishqoriy agent qo'llanilishi hisobiga natriy gidroksidni 3 marta va vodorod peroksidni 0,25 marta tejalishiga erishilgan;

paxta matolarini yarim uzluksiz usulda faol bo'yovchi modda bilan bo'yashning texnologik rejimi "Urganch Baxmal" MCHJ, "Marva Impex" MCHJ korxonalarida joriy etildi. ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024-yil 30-apreldagi 03/25-889-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'yash vannasidagi mochevinani bentonitga almashtirish bo'yovchi moddaning tolaga chuqur kirib borishiga yordam beradi va rang intensivligini oshiradi. Intensifikatorni qo'llash bo'yovchi modda sarfini o'rtacha 1,5 barobarga, yuvish jarayoni sonini kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 4 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, shu jumladan 2 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurat asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiy tahliliy sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida paxta tolasi ishlab chiqarishning statik tahlili o'tkazilgan, sellyulozaning tuzilishi, shuningdek, sellyuloza tarkibidagi materiallarni pardoqlashga tayyorlash va bo'yash haqida zamonaviy g'oyalar bayon qilingan. Davriy va aprior adabiyotlarda to'qimachilik materiallarini, ularning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda, pardoqlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar yo'qligi ko'rsatilgan. To'qimachilik materiallarini yangi turdagi paxta tolasidan individual yondashuv orqali pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot ob'ekti va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida izlanish ob'yektlarining xususiyatlari tahlil qilinadi, to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash usullari va tolali xomashyo paxta tolasi, shuningdek, kalava ip va mato xossalarini o'rganish usullari tavsiflanadi. Shu bilan birga, eksperimental natijalarni tahlil qilish usullari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Porloq**" seleksion navli paxta tolalarining strukturaviy xossalarini hisobga olgan holda to'qimachilik materiallarini

**pardozlash texnologiyasini ishlab chiqish**” deb nomlanib, “Porloq” seleksion navli paxta tolasining fizik-mexanik va struktura-sorbsion, ekspluatatsion xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Eksperimental tadqiqotlar va matematik hisob-kitoblar natijalari asosida “Porloq” seleksion navli paxta tolasi asosidagi kalava ip va mato xossalari hisobga olgan holda takomillashtirilgan pardozlashga tayyorlash va bo‘yash texnologiyalari ishlab chiqildi va taklif qilindi.

**Birinchi bosqichda** turli seleksion navli paxta tolasi xomashyosining sifat ko‘rsatkichlaridagi farqni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Tajribalar uchun respublika olimlari tomonidan yetishtirilgan va qisqa davrda pishib yetilishi bilan ajralib turadigan, fizik-mexanik xossalari nisbatan yuqori bo‘lgan P-1, P-2, P-4 seleksion paxta navlari tanlab olindi va rayonlashgan S-6524 navi ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi (1-jadval).

1- jadval

**Turli seleksion navli paxta tolalarining xususiyatlari**


№	Paxta tolasi ko‘rsatkichlari	P- 1	P- 2	P-4	S -6524	«O‘z DSt 604:2016» bo‘yicha
1.	Mikroneyr , mic	4,5	4,2	4,2	4,6	3,5÷4,9
2.	Yuqori o‘rtacha uzunlik (UHML), mm	31,5	30,9	31,0	28,2	29,8÷32,8
3.	Uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi, %	83,5	83,1	82,9	82,3	81÷83
4.	Solishtirma uzilish kuchi, gf /tex	29,5	28,9	29,4	28,4	27÷29
5.	Uzilishdagi uzayishi, %	7,4	6,3	6,5	6,8	5,9÷6,7
6.	Kalta tolalar indeksi, %	6,4	6,7	7,6	8,0	-
7.	Yog‘ miqdori, %	0,65	0,67	0,59	0,69	0,6-0,8

“Porloq” seleksion paxta tolasining yangi navlari tarkibiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha rayonlashtirilgan navlardan farq qiladi.

Tanlangan tolali xomashyoning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda sorbsion xarakteristikalarini o‘rganildi va rentgen-difraksion tahlili o‘tkazildi.

Kelib chiqishi va navlarning xilma-xilligiga qarab, tolali xom ashyo namunalari turli xil suv bug‘larining sorbtsiya izotermalariga ega. Xom ashyoning sirt va hajmli xarakteristikalarini suv bug‘ining sorbtsiya izotermalaridan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda hisoblab chiqilgan.

Xom ashyoning sirt va hajm xossalari o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, paxta tolasining yangi navlari keng ekiladigan navga nisbatan yuqori sirt va hajm xususiyatlariga ega (2-jadval).



**1-rasm. Namunalar 25 ± 0,1 °C da suv bug‘ining sorbsiyasi izotermalari:**

1 – Porloq-1; 2 – Porloq -2;  
3 – Porloq- 4; 4 – S-6524


**Turli seleksion nav paxta tolalarining sirt va hajm xossalari**

Sifat ko'rsatkichlari	Paxta tolasi navi			
	P-1	P-2	P-4	S-6524
Bir qatlamli sig'im $X_m, g/g$	0,0219	0,0118	0,0109	0,0105
Sirt maydoni $S_{sm}, m^2/g$	76,98	41,52	70,97	36,75
Umumiy g'ovaklar hajmi $W_0, sm^3/g$	0,072	0,058	0,077	0,048
Kapilyarlar radiusi $R_k, \text{Å}$	28,18	18,71	21,91	26,12
Kristallanish darajasi, %	84	86	85	84

P-1 va P-4 navlarining solishtirma sirt maydoni 2 va 1,9 baravar yuqori, o'rganilayotgan yangi paxta tolasi navlarining umumiy g'ovak hajmi "S-6524" navga nisbatan mos ravishda 1,5, 1,2 va 1,6 baravar yuqori. P-2 paxta tolasining tuzilishi boshqa namunalarga nisbatan kichikroq g'ovak o'lchamlariga ega.

P-4 tolasi nisbatan kichik radius o'lchamlariga ega – 21,91 Å, ammo umumiy g'ovak hajmi S-6524 tolasidan 1,6 baravar ko'p. Paxta tolasining yangi navlari ham shu ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi.

IQ spektral tahlil qilish spektrlarida paxta sellyulozasi guruhlariga xos bo'lgan yutilish zonalari ko'rinadi. Shu bilan birga, OH, CH, HOH, piran halqasi, OH +CH<sub>2</sub> va -COC- gidrozit ko'prigi kabi turli xil paxta navlari sellyulozasining asosiy funksional guruhlarining yutilish zonasi kichik farqlarga ega. Spektrlar – CH<sub>2</sub>OH va OH guruhlarini yo'nalishdagi farqlarni ko'rsatadi, shuningdek, vodorod bog' sonini ham (2-rasm).



2-rasm. Turli seleksion navli paxta tolasi namunalariining IQ spektrlari:

1– P-1; 2–P-2; 3– P-4; 4 – S-6524

Genetik modifikatsiyalangan “Porloq” seleksion navli paxta tolalarining strukturaviy xususiyatlarini batafsilroq o‘rganish uchun o‘rganilayotgan namunalarning rentgen nurlanishining difraksion tahlili o‘tkazildi.


Rayonlashgan paxta tolasining mikro tuzilishi “Porloq” navlaridan kristallarning tekisliklararo masofasi va kristallarning yo‘nalishlari o‘lchamlari bilan farqlanadi. Bu farqlar paxta tolasining genetik o‘zgarishlar va vegetativ jarayoni bilan bog‘liq (3-jadval).

3-jadval

**Turli xil paxta tolasini navlarining tekisliklararo masofalari va kristallit o‘lchamlari**

Nav	Tekisliklararo masofalar d(A)					Kristallit o‘lchamlari (A)			
	$d_{(101)}$	$d_{(101)}$	$d_{(002)}$	$d_{(040)}$	$\lambda$	L3	L4	L5	L7
P-1	6,026	5,539	3,952	2,578	1,5418	80,163	80,286	115,803	83,317
P-2	6,026	5,539	3,892	2,571	1,5418	80,163	80,286	115,874	119,057
P-4	6,326	8,043	3,986	2,622	1,5418	20,025	26,624	115,763	83,182
S-6524	6,109	5,47	3,892	2,564	1,5418	80,146	80,306	135,187	83,363

“SEM ZEISS SIGMA” markali skanerlash elektron mikroskopi yordamida o‘tkazilgan paxta tolasini namunalariining mikroskopik tadqiqotlari natijalari 3-rasmda ko‘rsatilgan.




3-rasm. Paxta tolasini namunalariining SEM fotosuratlari:

a – P-1; b – P-2; c – P-4; g – “S-6524”

SEM yordamida olingan paxta tolasini namunalariining fotosuratlari tahlili ham turli seleksion navli paxta tolalarining geometrik parametrlaridagi farqlarni tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan g‘o‘za namunalariidagi irsiy farqlar va uning vegetatsiya jarayoni sellulozaning ustmolekulyar tuzilishining shakllanishiga ta’sir etishi aniqlandi.


**Ikkinchi bosqichda** paxta tolasini yangi navlaridan olingan kalava ipning fizik-mexanik xossalari o‘rganildi (4- rasm).



4- rasm. Turli seleksion navli paxta tolasi asosidagi kalava iplarining fizik-mexanik xossalari

GOST 17-96-86 bo'yicha "Porloq" seleksiya navlari asosida olingan kalava ip ko'rsatkichlari birinchi navga, C-6524 navlari asosida olingan kalava ip esa ikkinchi nav ko'rsatkichlariga mos kelishi aniqlandi.


To'qimachilik materiallari ish paytida turli deformatsiya ta'siriga duchor bo'ladi. Shu munosabat bilan olingan kalava ip namunalarini deformatsiyalash tarkibiy qismlari o'rganildi.




5-rasm. Turli seleksion navli paxta tolasi asosidagi kalava ip namunalarini deformatsiyalash tarkibiy qismlari

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, "Porloq" navlaridan olingan kalava ipning barcha namunalarida elastik deformatsiyasining qiymatlari eng katta, plastik komponentning ko'rsatkichi esa eng kichik.

Namunalar kompleks baholanganida P-2 va P-4 navlari eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi (4 va 5-rasm).



II-1 ————— II-2 .....  
 6-rasm. Paxta asosidagi kalava iplar sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash sxemasi



II-4 - - - - - C-6524 - - - - -  
 7-rasm. Paxta asosidagi kalava ip sifat ko'rsatkichlarini solishtirish uchun gistogramma

**Uchinchi bosqich** an'anaviy usulda paxta tolasining yangi turlarini pardoqlashga tayyorlash imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Dastlabki bosqichda o'rganilayotgan paxta tolasini namunalari pardoqlashga tayyorlash sifati amaldagi texnologik rejim va an'anaviy foydalaniladigan reagentlar bo'yicha baholandi. Reagentlarning ta'sirini o'rganish va o'rganilayotgan ob'ektlarning strukturaviy va hajmli xususiyatlaridagi farqni hisobga olgan holda paxta tolalari qaynatiladi. (4-jadval).

4-jadval

**Mavjud texnologiyadan foydalangan holda amalga oshirilgan turli seleksion navli paxta tolalarini pardoqlashga tayyorlash sifati**


№	Paxta tolasining seleksion navlari	Oqlik darajasi*, %	
		dastlabki tola	oqartirilgan tola
1.	S-6524	67,0	80,7
2.	Porloq -1	73,4	83,0
3.	Porloq-2	72,0	82,0
4.	Porloq -4	69,0	83,0

\*GOST 29298-2005 talablariga muvofiq, oqlik darajasi kamida 82% ni tashkil qiladi.


Mavjud texnologik rejim bo'yicha paxta tolasini asosidagi kalava ipni pardoqlashga tayyorlashda bu namunalarda bir xil oqlik darajasiga erishilmaydi. Keyinchalik asosiy reagentlar (NaOH, H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>) konsentratsiyasining oqlik darajasi va namunalarning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi.

Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, GOST talablariga javob beradigan oqlik darajasiga erishish uchun qaynatish va oqartiruvchi vannaning tarkibini korrrektirovka qilish kerak.

Tajriba natijalariga ko'ra, paxta asosidagi kalava ipining ayrim tanlangan navlarini pardozlashga tayyorlash jarayonining texnologik rejimi taklif qilindi va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazildi (8, 9-rasmlar).



8-rasm. P-2 paxta tolasi asosidagi kalava ipni pardozlashga tayyorlash jarayonining texnologik rejimi



9-rasm. P-4 paxta tolasi asosidagi kalava ipni pardozlashga tayyorlash jarayonining texnologik rejimi

Taklif etilayotgan texnologiya bo'yicha paxta tolasi asosidagi kalava ip namunalari pardozlashga tayyorlash jarayoni ularning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori oqlik va kapillyarlikni ta'minlaydi. Jismoniy va mexanik xususiyatlarning yaxshilanishi kalava ipni pardozlashga tayyorlashdan keyin qisqarish va chiziqli zichlikning oshishi bilan bog'liq.

Ishlab chiqarish sharoitida P-4 paxta tolasi asosida "Satin" to'quv matosi ishlab chiqildi. Ushbu matoni pardozlashga tayyorlash uchun yarim uzluksiz sovuq usulda pardozlashga tayyorlash usuli tanlandi, chunki bu usul tejamkor, ekologik jihatdan qulay va kamroq energiya va moddiy resurslarni talab qiladi. Bundan tashqari, bu usul past hajmli mato assortimentidan foydalanganda yaxshi natijalar beradi.

Korxonada mavjud texnologiyadan foydalangan holda tayyorlangan matoning sifat ko'rsatkichlari GOST talablariga javob bermaydi. Yuqori sifatli pardozlashga tayyorlashga erishish uchun mato sifatga ta'sir qiluvchi asosiy reagentlar konsentratsiyasi o'rganildi (Beizol DO fermenti, NaOH va H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>).

Matoni yarim uzluksiz usulda tayyorlash uchun 12 soatgacha bo'lgan vaqt davomida ushlab turish jarayoni talab qilinadi, so'ng tavsiya etilgan tarkib bilan shimdirilgan matoga ushlab turish vaqtining ta'siri o'rganildi (5-jadval).

5-jadval

**Pardozlashga tayyorlangan mato sifatiga ushlab turish vaqt davomiyligining ta'siri**

№	Oqartirilgan matoning sifat ko'rsatkichlari	Ushlab turish vaqt davomiyligi, s (6/8/10/12)	
		"Satin" - paxta tolasi asosidagi mato "S-6524"	"Satin" - paxta tolasi asosidagi mato "Porloq-4"
1.	Oqlik darajasi*, %	70,0/74,8/78,8/83,6	71,0/ 80,2/84,4/85,6
2.	Kapillyarlik*, mm/s	83,0 / 95,0 /105,0 /133,0	86,0/115,0/ 129,0 / 133

\*GOST 29298-2005 talablariga muvofiq, oqlik darajasi kamida 82% ni tashkil qiladi.

\*ISO 811-81 talabiga ko'ra, kapillyarlik ko'rsatkichlari kamida 120 mm / soat.

Eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida tolali xomashyoning strukturaviy va hajmiy xususiyatlarini hisobga olgan holda “Porloq-4” paxta tolasi asosida “Satin” matosini pardoqlashga tayyorlash jarayoni taklif etildi. P-4 paxta tolasi asosida “Satin” matosini pardoqlashga tayyorlashning taklif etilayotgan texnologik rejimi “Urganch Baxmal” MChJ sharoitida sinovdan o‘tkazildi va joriy etish uchun qabul qilindi.

Taklif etilayotgan texnologik rejim quyidagi tarkibda (g/l) amalga oshiriladi: FelosanAPF (namlash agenti) – 1,5; BEIZOL DO (ferment) – 1,0±0,3; Na<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub> – 2,5; KALLOZOL SD (havo chiqargich) – 0,25; ContawashtIG (stabilizator), H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> – 1,5±0,2; NaOH – 2; T = 25 °C; t = 0,5 min. Ushlab turish: τ=10s; yuvish: 1- bosqich –95 °C suvda 3 daqiqa, 2-bosqich –95 °C da 3 daqiqa, 30 °C da 3 minut; 3- bosqich – 30 °C suvda 3 daqiqa davomida.

So‘ngra, mavjud usulda paxta tolasining yangi turlarini bo‘yash imkoniyatlari o‘rganildi. Dastlabki bosqichda mavjud texnologik rejimga muvofiq bo‘yalgan kalava ip namunalarining sifat ko‘rsatkichlari, bo‘yovchi modda va Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> konsentratsiyasining ta’siri bo‘yalgan kalava ip namunalarining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholandi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘yovchi moddadan foydalanish darajasi o‘rtacha 50-55% ga yetdi. Shu nuqtai nazardan, turli xil seleksion navli tolali xom ashyoning fiksatsiyalangan bo‘yovchi modda miqdori va mikro-makro tuzilmasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Kalava iplarning ko‘ndalang kesimi maydoni, elementar tolalar egallagan maydon va turli strukturaviy-hajmli xususiyatlarga ega bo‘lgan kalava iplarning bo‘shliqlari bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar tolali xom ashyoning strukturaviy va sorbsion xususiyatlarining bo‘yovchi modda bog‘langanlik miqdoriga ta’sirini aniqlash uchun zarurdir.

Tajriba natijasida, “Porlok” seleksion navli paxta tolasi va kalava iplarining strukturaviy-hajmli, geometrik xarakteristikalarini hamda tolalar miqdori 6-jadvalda keltirilgan.


6- jadval

**“Porlok” seleksion navli paxta tolasi va kalava iplarining strukturaviy-hajmli, geometrik xarakteristikalarini hamda tolalar miqdori**

Paxta navi	Sirt maydoni S <sub>sm</sub> , m <sup>2</sup> /g	Umumiy g‘ovaklar hajmi W <sub>0</sub> , sm <sup>3</sup> /g	Kapillyarlar radiusi R <sub>k</sub> , Å	Tola diametri		Kalava iplarda tolalar soni, ta	Kalava ip diametri mm	Buyovchi moda boglanganligi	
				mikrometr µm	mm			g/kg	%
P-1	76,98	0,072	28,18	12,8	0,0128	57/59	0,153	10,86	54,3
P-2	41,52	0,058	18,71	10,21	0,0102	60/65	0,142	9,90	49,5
P-4	70,97	0,077	21,91	8,88	0,0088	72/73	0,142	10,24	51,2
S-6524	36,75	0,048	26,12	13,5	0,0135	51/55	0,155	9,00	45

Dastlab kalava ip kesim yuzasi bo‘yicha egallagan tolalar qalinligi hisoblandi. Hisob sxemasi 9-rasmda keltirilgan.





9-rasm. **Hisob sxemasi**

Nazariy tomondan kalava ip kesim yuzasi tashkil etuvchilar

$$S_k = K\pi \frac{d^2}{4} + S_b$$

bu yerda,

K- kesim yuza bo'yicha tolalar soni;

d- tolalar kesimining diametri;

$S_b$  – bo'shliqlar egallagan yuza.

Kalava ip navi uchun bo'shliq hajmini (g'ovaklarni) va bo'shliq nisbatini aniqlash  
P-1:  $D_1 = 0,153\text{mm}$ ,  $K_1 = 58$

$$S_{b1} = \pi \frac{D_1^2}{4} = 0,01838. \quad (1)$$

Mos ravishda tola kesim yuzasi  $d_1 = 0,01128$  i

$$S_v = \pi \frac{d_1^2}{4} = 0,0000999\text{mm}^2. \quad (2)$$

Ushbu paxta navidan aniqlangan kalava ipda o'rtacha 58 ta tola mavjud:

$$S_{k1}^1 = S_{v1} \cdot K_1 = 0,0000999 \cdot 58 = 0,005794 \text{ mm}^2. \quad (3)$$

Olingan natijalardan Porloq-1 navidan olingan kalava ipdan tolalar orasidagi bo'shliq (poralar) qiymati:

$$S_{b1} = S_{k1} - S_{k1}^1 = 0,012586 \text{ mm}^2. \quad (4)$$

Bo'shliq qismini kesim yuzasini umumiy yuzaga nisbatini bo'shliqlik koefitsiyentini hisoblaymiz.

$$\delta_1 = \frac{S_{k1} - S_{k1} \cdot K_T}{S_{k1}} \cdot 100 \% = 68,5 \% . \quad (5)$$

7-jadval

**Paxta navlari bo'yicha kesim yuzasi bo'yicha ko'rsatkichlari qiymatlari**

Paxta navi	Kalava ip kesim yuzasi, $S_k, \text{mm}^2$	Tola kesim yuzasi $S_T, \text{mm}^2$	Kalava ip kesim yuzasidagi tolalar qismi $S_k^1, \text{m}^2$	Kesim yuzasi bo'shliq kesimi $S_b, \text{m}^2$	Nisbiy kesim yuzasidagi bo'shliq, $\delta, \%$
P-1	0,01838	0,0000999	0,005794	0,012586	68,50
P-2	0,015828	0,000081672	0,006370	0,009458	59,75
P-4	0,015828	0,00006079	0,004437	0,011391	71,90
S-6524	0,01886	0,0001431	0,006438	0,01242	65,86

Kalava ipni tashkil etuvchi tolalar va bo'shliqlarga shimilgan bo'yovchi modda sarfi:

$$V_{kp} = 2\pi r_{bl} T_B \Delta K_p K + l_B S_{\Pi} + S_{K} K \quad (\pi r_{B2}^2 l_{TB} V_{kp1}) \quad (6)$$

Tajribada olingan natijalarga ko'ra (6-jadval) bo'yovchi moddaning bog'langanlik qiymati aniqlangan. Unga ko'ra har bir paxta navi uchun tolalarning kapilyarligi orqali shimib olingan bo'yovchi moddani sarf qiymatini aniqlashda shimilish koeffitsientlari aniqlandi:

$$\eta_{sh1} = 0,54; \quad \eta_{sh2} = 0,495; \quad \eta_{sh3} = 0,512; \quad \eta_{sh4} = 0,512.$$

Keltirilgan (6) ifodaga asosan xar bir paxta navi uchun sarf bo'lgan bo'yovchi moddani 100m uzunlikdagi kalava ip uchun aniqlaymiz. Hisoblashlar natijasida bog'lanish grafiklari qurildi. Hisoblash natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

**Kalava iplarni bo'yashda ip kesim yuzasi bo'yicha bo'yovchi modda miqdori**

Kalava ip nomi	Kalava ip kesim yuzasi mm <sup>2</sup>	Bog'langan bo'yovchi modda miqdori *10 mm <sup>3</sup>
Porloq -1	0,018÷0,022	1,31÷1,45
Porloq-2	0,015÷0,017	0,62÷0,75
Porloq -4	0,015÷0,017	1,35÷1,51
S-6524	0,018÷0,022	0,61÷0,73

Aktiv bo'yovchi moddalardan foydalanishni kengaytirish va o'rganilayotgan barcha kalava ip namunalarini, shu jumladan, turli tolali strukturali kalava iplarni bo'yash sifatini yaxshilash maqsadida bentonit yordamida bo'yash jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari o'rganildi. Ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarilgan turli seleksion navli kalava iplarini intensivikator miqdorining bo'yashga ta'siri o'rganildi (9-jadval).

Bo'yashi vannasida bentonit miqdorini ko'paytirish bo'yovch moddaning ko'proq fiksatsiyasiga olib keladi va shunga mos ravishda rang intensivligi oshadi. Bo'yash sifatini baholash bilan bir qatorda, intensivikatorning konsentratsiyasiga qarab namunalar ranglanishining notekisligi aniqlandi. Bo'yash vannasiga 1,5 g/l dan ortiq bentonit kiritilsa, rang bir tekisligini buzilishi kuzatiladi va bo'yovchi moddaning koagulyatsiyasi yuzaga keladi.

9-jadval

**Intensifikatorning turli\* navli paxta tolasi asosidagi kalava iplarni bo'yash sifatiga ta'siri**

Rang sifati ko'rsatkichlari *	Bentonit konsentratsiyasi, g/l			
	0,5	1,0	1,5	2,0
Bo'yovchi moddadan foydalanish darajasi, %	57/62	63/66	66/69	69/71
Rang intensivligi K/S	8,8/10,0	9,7/12,5	10,5/13,0	12,0/13,7
Rang notekisligi P	0,9/0,85	0,83/0,79	0,80/0,75	0,97/0,85

\* P-2/P-4 kalava iplarini bo'yash natijalari.

“OSBORN TEXTILE” MChj sharoitida tavsiya etilgan texnologiya bo‘yicha bo‘yash jarayoni DMS 04 HT YARN DEING MACHINE jihozida quyidagi tarkibda amalga oshirildi: faol bo‘yovchi modda (%):  $2,0 \pm 0,2$ ; alkali–2 g/l; SULFAT –65 g/l; bentonit – 1,0 g/l. O‘rganilayotgan namunalarning sifat ko‘rsatkichlari 10-jadvalda keltirilgan.

Bo‘yash jarayoni intensivlash rangga qarab bo‘yovchi moddalardan foydalanish darajasini oshirishga yordam beradi, rangga qarab P-2 seleksiya navi uchun – 21,1% gacha, P-4 uchun – 23,2% gacha va S-6524 uchun –15,7%.

10-jadval

**Mavjud hamda taklif etilayotgan texnologiya bo‘yicha bo‘yalgan paxta asosidagi kalava iplarining sifat ko‘rsatkichlari**

